BOJXONA IMTIYOZLARI VA PREFERENSIYALARI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY YO‘NALISHLARI

Farxodov Farrux Furqatovich
Bojxona instituti dotsent v.b., PhD
ORCID: 0009- 0004-2041-3504
Email: Farrux.farxodov@gmail.com

Tammimova Arofatxon Shavkat qizi
Bojxona instituti 3-kurs BI-523 guruh kursanti.
email: tammimovaa@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.21695258

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekistonda bojxona imtiyozlari va tarif preferensiyalari tizimining nazariy-huquqiy asoslari, amaliy qo‘llanish mexanizmlari hamda ularni takomillashtirish yo‘nalishlari tahlil qilingan. Tadqiqot natijasida imtiyozlarni to‘liq ozod qilishdan pasaytirilgan stavkalarga o‘tkazish, “imtiyoz evaziga majburiyat” tamoyilini joriy etish, ochiq elektron reyestr yaratish, bojxona auditini kuchaytirish va differensial imtiyoz stavkalarini qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi.
Kalit so‘zlar: bojxona imtiyozlari, tarif preferensiyalari, TIF TN, bojxona to‘lovlari, bojxona auditi, tashqi iqtisodiy faoliyat, JST, xavfni boshqarish tizimi.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ СИСТЕМЫ ТАМОЖЕННЫХ ЛЬГОТ И ПРЕФЕРЕНЦИЙ

Аннотация: В данной статье проанализированы теоретико-правовые основы системы таможенных льгот и тарифных преференций в Республике Узбекистан, механизмы их практического применения, а также основные направления их совершенствования. По результатам исследования разработаны предложения по переходу от полного освобождения от уплаты таможенных платежей к применению пониженных ставок, внедрению принципа «льгота в обмен на обязательства», созданию открытого электронного реестра, усилению системы таможенного аудита и применению дифференцированных ставок таможенных льгот.
Ключевые слова: таможенные льготы, тарифные преференции, ТН ВЭД, таможенные платежи, таможенный аудит, внешнеэкономическая деятельность, ВТО, система управления рисками.

MAIN DIRECTIONS FOR IMPROVING THE SYSTEM OF CUSTOMS PRIVILEGES AND TARIFF PREFERENCES

Abstract: This article examines the theoretical and legal foundations of the customs privileges and tariff preferences system in the Republic of Uzbekistan, the mechanisms for their practical implementation, and the key directions for their further improvement. Based on the findings of the study, proposals were developed to replace full customs duty exemptions with reduced tariff rates, introduce the principle of “privileges in exchange for obligations,” establish an open electronic registry, strengthen the customs audit system, and implement differentiated customs privilege rates.

Keywords: customs privileges, tariff preferences, Harmonized System (HS) Nomenclature, customs payments, customs audit, foreign economic activity, World Trade Organization (WTO), risk management system.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida tashqi savdo hajmining ortishi, ishlab chiqarish zanjirlarining globallashuvi va davlatlar o‘rtasidagi iqtisodiy raqobatning kuchayishi bojxona-tarif siyosatini nafaqat budjet tushumlarini shakllantiruvchi vosita, balki iqtisodiy rivojlanishni boshqaruvchi muhim mexanizmga aylantirmoqda. Xususan, bojxona imtiyozlari va tarif preferensiyalari davlat tomonidan ayrim tarmoqlarni qo‘llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, eksport salohiyatini oshirish, import o‘rnini bosuvchi ishlab chiqarishni rag‘batlantirish hamda ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar narxini barqarorlashtirishda muhim o‘rin tutadi.

O‘zbekiston sharoitida bojxona imtiyozlari tizimining ahamiyati yanada yuqori bo‘lib, mamlakat iqtisodiyotida sanoatlashtirish, texnologik yangilanish, eksport geografiyasini kengaytirish va Jahon savdo tashkilotiga qo‘shilish jarayonlari bir vaqtda kechmoqda. Bu esa milliy bojxona-tarif siyosatini xalqaro savdo qoidalari, shaffoflik, teng raqobat va majburiyatlarga moslashtirishni talab qiladi.

Amaldagi bojxona imtiyozlari tizimi bir tomondan ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash va tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari xarajatlarini kamaytirish imkonini bersa, ikkinchi tomondan ularning samaradorligini baholash, maqsadli qo‘llanishini nazorat qilish, budjet manfaatlari va raqobat muhitiga ta’sirini o‘lchash zaruratini yuzaga keltiradi.

Ushbu taqdiqotda biz O‘zbekistonda bojxona imtiyozlari va preferensiyalari tizimining amaldagi holatini tahlil qilish, mavjud muammolarning tizimli sabablarini aniqlash hamda ushbu tizimni huquqiy, tashkiliy, raqamli va iqtisodiy jihatdan takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishni maqsad qilib oldik.

ADABIYOTLAR SHARHI

Bojxona imtiyozlari va tarif preferensiyalari davlatning tashqi savdo siyosatini amalga oshirishda qo‘llaniladigan muhim iqtisodiy-huquqiy instrumentlardan biri hisoblanadi. Jahon amaliyotida ushbu mexanizmlar investitsiyalarni rag‘batlantirish, ishlab chiqarishni qo‘llab-quvvatlash, eksport salohiyatini oshirish va xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish vositasi sifatida keng qo‘llaniladi. Shu bois mazkur masala iqtisodiyot, bojxona ishi va xalqaro savdo sohalarida faol tadqiq etilayotgan ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi.

Bojxona imtiyozlari tushunchasining nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turlicha talqin etilgan. L.K. Nurusheva va O.V. Fadeeva bojxona imtiyozlarini bojxona qonunchiligida nazarda tutilgan va tovarlarni bojxona to‘lovlaridan to‘liq yoki qisman ozod etishga qaratilgan huquqiy afzallik sifatida izohlaydi. Ularning fikricha, mazkur imtiyozlar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining xarajatlarini kamaytirish va xalqaro savdoni rivojlantirishga xizmat qiladi[1].

O‘zbekistonlik olim Z.A. Mirzayev bojxona imtiyozlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni umumiy va individual xususiyatga ega hujjatlarga ajratadi. Muallifning fikricha, umumiy huquqiy normalar uzoq muddat amal qiladigan tizimli imtiyozlarni belgilasa, individual hujjatlar muayyan tarmoq, loyiha yoki xo‘jalik yurituvchi subyektni qo‘llab-quvvatlash maqsadida qabul qilinadi[2].

Mahalliy ilmiy tadqiqotlarda bojxona imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini baholash masalasiga ham alohida e'tibor qaratilgan. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2011–2021-yillar davomida bojxona organlari tomonidan taqdim etilgan imtiyozlar hajmi sezilarli

[1] Нурушева Л.К., Фадеева О.В. Таможня и ВЭД. Практическое пособие 2015. – СПб; ИЦ Интермедия 2015 г.- 136 с.
[2] Mirzayev Z.A. Imtiyozlar va ularni to‘g‘ri qo‘llash masalalari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr – dekabr, 2016 yil

darajada o‘zgargan, davlat budjetiga tushumlar ulushi esa ortib borgan. Bu esa bojxona imtiyozlari tizimini optimallashtirish va ularning natijadorligini muntazam monitoring qilish zarurligini ko‘rsatadi.

Xorijiy tajribani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, Yevropa Ittifoqida tarif kvotalari tizimi xom ashyo va yarim tayyor mahsulotlar importini rag‘batlantirish maqsadida qo‘llaniladi. Belgilangan kvota doirasida import qilinadigan mahsulotlarga pasaytirilgan yoki nol stavkali bojlar qo‘llanilib, kvotadan ortiq hajm uchun umumiy tarif stavkalari amal qiladi. Bunday yondashuv ichki bozor manfaatlarini himoya qilish bilan bir qatorda ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini ham ta'minlaydi.

Rossiya Federatsiyasi tajribasi ham bojxona imtiyozlari samaradorligini muntazam tahlil qilish muhimligini ko‘rsatadi. Ilmiy tadqiqotlarda imtiyozlarning davlat budjeti daromadlariga, tashqi savdo hajmiga va iqtisodiy faollikka ta'siri kompleks baholangan hamda bojxona imtiyozlarini qo‘llashda risklarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish zarurligi qayd etilgan.

Shundan kelib chiqib, mavjud adabiyotlar va qonunchilik hujjatlari asosida shuni aytish mumkinki, bojxona imtiyozlarining iqtisodiy samaradorligini kompleks baholash, ularni natijadorlik ko‘rsatkichlari (KPI) asosida monitoring qilish, sun’iy intellekt va risklarni boshqarish tizimlari bilan integratsiyalash, shuningdek “imtiyoz evaziga majburiyat” tamoyilini amaliyotga joriy etish masalalari yetarli darajada tadqiq etilmagan. Mazkur ilmiy bo‘shliq ushbu tadqiqotning dolzarbligini belgilaydi hamda bojxona imtiyozlari va tarif preferensiyalari tizimini takomillashtirish bo‘yicha yangi ilmiy yondashuvlarni ishlab chiqish zaruratini asoslaydi.


TADQIQOT METODLARI.

Mazkur tadqiqotda bojxona imtiyozlari va preferensiyalari tizimi bo‘yicha mavjud huquqiy, tashkiliy va amaliy mexanizmlarni tahlil qilish, hamda statistik tahlil orqali ilmiy xulosa chiqarish maqsad qilingan. Maqolada emperik, xalqaro tajribani taqqoslash va tahliliy statistik tahlil usullari asosida o‘rganilib, milliy bojxona tizimida bojxona imtiyozlari va preferensiyalar qo‘llashni takomillashtirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

NATIJA VA TAHLIL

Davlat tomonidan bojxona to‘lovlari bo‘yicha taqdim etiladigan imtiyozlar va tarif preferensiyalari mamlakatning investitsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlash, ishlab chiqarish salohiyatini oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish hamda zamonaviy texnologiyalarni jalb etishning muhim iqtisodiy vositalaridan biri hisoblanadi. Mazkur imtiyozlar yangi ishlab chiqarish quvvatlarini tashkil etish, mavjud korxonalarni modernizatsiya qilish, texnik va texnologik qayta jihozlash, shuningdek, ishlab chiqarish uchun zarur bo‘lgan xom ashyo va butlovchi qismlarni import qilish xarajatlarini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ular investitsiya loyihalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlash va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishga ko‘maklashadi.

2021–2025-yillar davomida bojxona organlari faoliyati natijalari bojxona to‘lovlari va ularga nisbatan qo‘llanilgan imtiyozlar hajmida barqaror o‘sish tendensiyasi kuzatilganligini ko‘rsatadi. Ushbu ko‘rsatkichlar bojxona tizimining bir vaqtning o‘zida fiskal vazifani bajarishi bilan bir qatorda iqtisodiyotni rag‘batlantirish funksiyasini ham amalga oshirayotganini tasdiqlaydi.



2.1-rasm. 2021–2025-yillar davomida undirilgan bojxona to‘lovlari hamda qo‘llanilgan imtiyozlar tahlili[3]

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, 2021-yilda davlat budjetiga undirilgan bojxona to‘lovlari 33,2 trln so‘mni, qo‘llanilgan imtiyozlar esa 38,2 trln so‘mni tashkil etgan bo‘lsa, 2025-yilga kelib, bojxona to‘lovlari 76,2 trln so‘mga, imtiyozlar hajmi esa 59,1 trln so‘mga yetdi. Bu esa bojxona tushumlari o‘sish sur’atlari imtiyozlar hajmiga nisbatan yuqoriroq ekanligini hamda fiskal samaradorlikning ortib borayotganini ko‘rsatadi.

Mazkur tendensiya bojxona imtiyozlarini qisqartirish emas, balki ularni iqtisodiy samaradorlik tamoyillari asosida qayta yo‘naltirish zaruratini ko‘rsatadi. Chunki imtiyozlarning mutlaq hajmi saqlanib qolayotgan bo‘lsa-da, davlat budjetiga tushayotgan bojxona to‘lovlari ham mutanosib ravishda ortib bormoqda. Bu holat bojxona ma’murchiligining takomillashuvi, bojxona qiymatini aniqlash mexanizmlarining yaxshilanishi, tashqi savdo hajmining kengayishi hamda raqamli bojxona texnologiyalarining joriy etilishi bilan izohlanadi.

Hududlar kesimidagi tahlillar bojxona tushumlarining iqtisodiy faolligi yuqori bo‘lgan hududlarda jamlanganligini ko‘rsatadi. Xususan, 2025-yilda Toshkent shahri, Toshkent viloyati, “Toshkent-AERO” ixtisoslashtirilgan bojxona kompleksi, Andijon va Samarqand viloyati bojxona boshqarmalari tomonidan undirilgan bojxona to‘lovlari boshqa hududlarga nisbatan yuqori bo‘lgan. Ushbu holat mazkur hududlarda tashqi savdo operatsiyalari hajmi, logistika infratuzilmasi va sanoat ishlab chiqarishi rivojlanganligi bilan izohlanadi. Aksincha, Surxondaryo, Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Namangan viloyatlarida bojxona tushumlari nisbatan past bo‘lib, bu hududlarda tashqi iqtisodiy faoliyat ko‘lami va logistika salohiyati cheklanganligini ko‘rsatadi.

Bojxona imtiyozlarini me’yoriy-huquqiy hujjatlar kesimida tahlil qilish natijasida 2025-yilda imtiyozlarning asosiy qismi Prezident farmonlari va qarorlari asosida taqdim etilganligi aniqlanib, ularning hajmi 26,7 trln so‘mni tashkil etgan. Shuningdek, Soliq va Bojxona kodekslari hamda qonunlar asosida 18,7 trln so‘m, xalqaro shartnomalar asosida 8,1 trln so‘m, Vazirlar Mahkamasi hujjatlari asosida esa 5,6 trln so‘m miqdorida imtiyozlar qo‘llanilgan. Mazkur natijalar bojxona imtiyozlarini shakllantirishda Prezident hujjatlarining ustuvor o‘rin tutayotganini hamda investitsiya siyosatini qo‘llab-quvvatlashda ularning muhim huquqiy vosita ekanligini ko‘rsatadi.

[3] Bojxona qo‘miyasi ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi

Shuningdek, qo‘shimcha hisoblangan bojxona to‘lovlari yuzaga kelish sabablarini tahlil qilish natijasida bojxona qiymatini noto‘g‘ri belgilash hamda bojxona imtiyozlarini noto‘g‘ri qo‘llash asosiy xavf omillari ekanligi aniqlangan. Mazkur holat bojxona nazorati va bojxona auditi tizimini yanada takomillashtirish, sun’iy intellekt asosidagi xavflarni boshqarish mexanizmlarini joriy etish hamda imtiyozlardan foydalanish ustidan avtomatlashtirilgan monitoring tizimini yaratish zarurligini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, huquqiy bazaning bir nechta manbalarga tarqalib ketgani amaliyotda ayrim muammolarni yuzaga keltiradi. Imtiyoz beruvchi normaning bir hujjatda, uni qo‘llash tartibining boshqa hujjatda, tovar ro‘yxatining yana alohida qarorda berilishi tashqi iqtisodiy faoliyat subyektlari uchun huquqiy aniqlikni pasaytiradi. Bundan tashqari, imtiyozlarning tez-tez o‘zgarishi investitsion rejalashtirishda noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin. Shu sababli, amaldagi tizimni takomillashtirishda birinchi navbatda imtiyozlarning yagona ochiq elektron reyestrini shakllantirish, har bir imtiyozning maqsadi, muddati, oluvchisi, TIF TN kodi, iqtisodiy asosi va kutilayotgan natijasini ko‘rsatish zarur.

Xitoy tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bojxona imtiyozlari ishlab chiqarish va eksport natijalari bilan bog‘langanda kuchli iqtisodiy samara beradi. Xitoyda qayta ishlash savdosi, maxsus bojxona nazorati zonalari, erkin savdo zonalari va rag‘batlantiriladigan ishlab chiqarish yo‘nalishlari bo‘yicha imtiyozlar aniq shartlar bilan qo‘llaniladi. Tovar ichki bozorga chiqarilsa, tegishli to‘lovlar undiriladi; eksportga yo‘naltirilsa, yengillik saqlanadi. Bu model O‘zbekiston uchun “imtiyoz evaziga majburiyat” mexanizmini joriy etishda muhim namuna bo‘la oladi.

Singapur tajribasi bojxona tizimining ochiqligi va raqamli boshqaruvi bilan ahamiyatlidir. U yerda asosiy e’tibor bojxona bojidan ko‘ra tovar va xizmatlar solig‘i, erkin savdo zonalari, ombor rejimlari va eksportga yo‘naltirilgan subyektlar uchun pul oqimini yengillashtirishga qaratilgan. O‘zbekiston uchun bundan olinadigan saboq — imtiyozlar ko‘p sonli istisnolar shaklida emas, balki aniq raqamli platforma, ombor va qayta eksport rejimlari orqali boshqarilishi lozim.

Yevropa Ittifoqi tajribasi esa imtiyozlar tizimida shaffoflik, yagona qoidalar, elektron rasmiylashtirish va bojxona auditi muhimligini ko‘rsatadi. Ayniqsa, Inward Processing Relief — bojxona hududida qayta ishlashga o‘xshash mexanizm import xomashyosini qayta ishlash va tayyor mahsulotni eksport qilishda ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Bu O‘zbekiston uchun bojxona hududida qayta ishlash, reimport, reeksport va erkin ombor rejimlarini imtiyozlar tizimi bilan uyg‘unlashtirish zarurligini anglatadi.

Umuman olganda, o‘tkazilgan tahlillar bojxona imtiyozlari va tarif preferensiyalari iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning muhim vositasi bo‘lib qolayotganini tasdiqlaydi. Biroq ularning samaradorligini oshirish uchun imtiyozlarni natijadorlik ko‘rsatkichlari asosida baholash, muddatli monitoringni yo‘lga qo‘yish, iqtisodiy samarasi past bo‘lgan imtiyozlarni bosqichma-bosqich optimallashtirish hamda "imtiyoz evaziga majburiyat" tamoyilini amaliyotga joriy etish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Mazkur yondashuv davlat budjeti barqarorligini ta’minlash bilan birga investitsiya va tashqi savdo faoliyatini yanada rag‘batlantirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda bojxona imtiyozlari va preferensiyalari tizimi tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, sanoatni modernizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish va ijtimoiy ahamiyatga ega mahsulotlar bozorini barqarorlashtirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq imtiyozlarning keng qo‘llanilishi ularni maqsadli, shaffof, natijador va nazorat qilinadigan mexanizmga aylantirishni talab etadi. Ushbu tahlillar asosida quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- bojxona imtiyozlari bo‘yicha yagona ochiq elektron reyestrni joriy etish zarur. Ushbu reyestrda har bir imtiyozning huquqiy asosi, amal qilish muddati, TIF TN kodi, oluvchilar toifasi, to‘lov turi, iqtisodiy maqsadi, kutilayotgan natijasi va monitoring ko‘rsatkichlari aks ettirilishi kerak. Bu mexanizm tadbirkorlar uchun huquqiy aniqlik yaratadi, davlat organlari uchun nazoratni yengillashtiradi va imtiyozlardan foydalanishda axborot tengligini ta’minlaydi;

- to‘liq ozod qilish amaliyotidan bosqichma-bosqich pasaytirilgan bojxona boji stavkalariga o‘tish maqsadga muvofiq. Masalan, ayrim imtiyozlar bo‘yicha 0 foiz stavka o‘rniga 1–5 foizlik pasaytirilgan stavkani qo‘llash bir vaqtning o‘zida tadbirkor uchun yengillikni saqlab qoladi va budjetga qo‘shimcha tushumlar shakllantiradi;

- “imtiyoz evaziga majburiyat” tamoyilini joriy etish lozim. Ayniqsa, texnologik uskunalar importi bo‘yicha imtiyoz oluvchi subyektlar ishlab chiqarish hajmi, eksport ulushi, ish o‘rinlari soni, mahalliylashtirish darajasi yoki investitsiya majburiyatlari bo‘yicha aniq KPI qabul qilishi kerak. Ushbu majburiyatlar bojxona organlari, soliq organlari va korxonaning moliyaviy hisobotlari orqali har yili tekshirilishi zarur. Agar KPI bajarilsa, imtiyoz saqlanadi; bajarilmasa, pasaytirilgan stavka bekor qilinadi yoki ilgari berilgan imtiyozning bir qismi qayta hisoblanadi;

- imtiyozlar samaradorligi bo‘yicha yillik “bojxona imtiyozlari hisoboti”ni e’lon qilish lozim. Unda har bir yirik imtiyoz bo‘yicha budjetga ta’sir, investitsiya natijasi, ishlab chiqarish hajmi, eksport o‘sishi, yangi ish o‘rinlari, narx effekti va aniqlangan qoidabuzarliklar ko‘rsatilishi kerak. Bunday hisobot parlament, hukumat, biznes va jamoatchilik uchun imtiyozlar siyosatini baholash imkonini beradi;

Umuman olganda, O‘zbekiston bojxona imtiyozlari va preferensiyalarni “aniq maqsadli, shaffof, natijaga bog‘langan va bojxona auditi bilan nazorat qilinadigan imtiyoz” modeliga o‘tkazishi zarur. Aynan shunday yondashuv tashqi iqtisodiy faoliyatni rag‘batlantirish, davlat manfaatlarini himoya qilish, JST talablariga moslashish va milliy ishlab chiqaruvchilarning raqobatbardoshligini oshirish o‘rtasida maqbul muvozanatni ta’minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksi.
2. O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi.
3. O‘zbekiston Respublikasining “Maxsus iqtisodiy zonalar to‘g‘risida”gi Qonuni.
4. Нурушева Л.К., Фадеева О.В. Таможня и ВЭД. Практическое пособие 2015. – СПб; ИЦ Интермедия 2015 г.- 136 с.
5. Mirzayev Z.A. Imtiyozlar va ularni to‘g‘ri qo‘llash masalalari “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr – dekabr, 2016 yil
6. Jahon savdo tashkiloti. Savdoni soddalashtirish to‘g‘risidagi bitim.
7. Jahon savdo tashkiloti. Subsidiyalar va kompensatsiya choralari to‘g‘risidagi bitim.
8. Shadmanqulov A., Pardayev T., Alimuhammedov Sh. Bojxona to‘lovlari. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: Bojxona instituti, 2023.
9. Alimuhammedov Sh.R. Bojxona to‘lovlaridan berilayotgan imtiyoz va ularni optimallashtirish tahlili. Journal of New Century Innovations, 2024.
10. Shadmanqulov A. O‘zbekistonda bojxona to‘lovlarining shakllanish jarayoni: tarix, islohotlar, prognozlar. Bojxona vestnigi, 2019.
11. Xitoy, Singapur, BAA, Gonkong, Yevropa Ittifoqi va YeOII mamlakatlarining bojxona imtiyozlari tizimi bo‘yicha rasmiy va tahliliy materiallar.
12. “Меры совершенствования механизма по предоставлению льгот по таможенным платежам” mavzusidagi rus tilidagi manba, Toshkent, 2026.